

TIBBIYOT TERMINLARINI INGLIZ TILIDA O'QITISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Butunbayeva Aziza Sayfullo qizi

PhD doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: abutunbaeva92@gmail.com

Anatatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishi talabalariga ingliz tilida tibbiy terminologiyani o'qitishda yuzaga keladigan lingvistik, metodik va psixologik muammolar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida an'anaviy o'qitish metodlarining cheklanganligi asoslanib, ularning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi samarasizligi ilmiy dalillar bilan ko'rsatib beriladi. Maqolada ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi va kommunikativ metodning o'zaro integratsiyasi asosida tibbiy terminologiyani o'qitishning samarali modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalar tomonidan terminlarni chuqur o'zlashtirish, ularni real kasbiy muloqotda qo'llash hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, kommunikativ yondashuv, ESP, lingvodidaktika, kasbiy kommunikativ kompetensiya, tibbiy ta'lim

Abstract. This article analyzes linguistic, methodological and psychological challenges in teaching medical terminology in English to medical students. The study highlights the limitations of traditional teaching methods and demonstrates their insufficiency in developing communicative competence. Based on the integration of the ESP (English for Specific Purposes) approach and the communicative method, an effective model for teaching medical terminology is proposed. The findings show that the communicative approach significantly enhances students' ability to understand terminology, apply it in real professional communication, and develop professional communicative competence.

Keywords: medical terminology, communicative approach, ESP, linguodidactics, professional communicative competence, medical education

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ лингвистических, методических и психологических проблем обучения медицинской терминологии на английском языке студентов медицинских направлений. Обосновывается ограниченность традиционных методов обучения и их недостаточная эффективность в формировании коммуникативной компетенции. На основе интеграции подхода ESP (English for Specific Purposes) и коммуникативного метода предлагается эффективная модель обучения медицинской терминологии. Результаты исследования показывают, что коммуникативный подход способствует более глубокому усвоению терминологии, ее применению в профессиональной коммуникации и развитию профессиональной коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: медицинская терминология, коммуникативный подход, ESP, лингводидактика, профессиональная коммуникативная компетенция, медицинское образование.

Zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro ilmiy va kasbiy kommunikatsiyaning yetakchi vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tibbiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar, klinik tajribalar va innovatsion ishlanmalar asosan ingliz tilida olib borilishi ushbu tilni kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga

aylantirmoqda. Xalqaro ilmiy bazalarda, xususan, Scopus va Web of Science tizimlarida indekslangan jurnallarning katta qismi ingliz tilida chop etilishi ham ushbu holatni tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasida ham xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, PQ-1875-son qarorda xorijiy tillarni kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash, mutaxassislarining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish zarurligi alohida ta'kidlangan [1, -b.]. Bu esa nofilologik yo'nalishlarda, jumladan tibbiyot ta'limida ingliz tilini samarali o'qitish masalasini dolzarb ilmiy muammo sifatida ilgari suradi.

Bugungi kunda nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni umumiy til bilimlarini shakllantirishdan ko'ra, talabalarni kasbiy kommunikatsiyaga tayyorlashga qaratilgan. Shu asosda "aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" (English for Specific Purposes – ESP) yo'nalishi shakllanib, u o'quvchilarning ehtiyojlari va kasbiy faoliyatiga moslashtirilgan til ta'limini ta'minlaydi. Hutchinson va Waters ta'kidlaganidek, ESP nazariy jihatdan umumiy ingliz tilidan farq qilmasa-da, amaliy jihatdan u o'quvchining aniq ehtiyojlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi [7].

Tibbiy terminologiya ingliz tilining eng murakkab va ixtisoslashgan qatlamlaridan biri bo'lib, u asosan yunon, lotin hamda boshqa tillar asosida shakllangan. Bu esa terminlarning morfologik va semantik jihatdan murakkabligini belgilaydi hamda ularni o'rganish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Abdullah G.M.ning fikricha, tibbiy terminlarning murakkabligi va uzunligi ularni o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi va talabalar uchun psixologik to'siqlarni yuzaga keltiradi [2,14-b.].

Shuningdek, amaliyotda ko'plab ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda an'anaviy metodlar, xususan grammatika-tarjima yondashuvi ustunlik qilmoqda. Ushbu metodlar terminologiyani nazariy jihatdan o'zlashtirishga yordam bergan bo'lsa-da, talabalarining real kasbiy kommunikatsiya jarayonida ularni qo'llash ko'nikmasini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Lai H.K. ta'kidlaganidek, an'anaviy yondashuvlar talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda samarasiz hisoblanadi [3,52-b.].

Mazkur muammolarni hal etishda kommunikativ yondashuv muhim metodik asos sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishni nazarda tutadi hamda o'quv jarayonini real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi. Richards va Rodgers fikricha, tilni o'rganish uning amaliy qo'llanilishi orqali samarali kechadi [4,66-b.].

Shu nuqtai nazardan, tibbiyot yo'nalishi talabalariga ingliz tilini, xususan tibbiy terminologiyani o'qitishda kommunikativ yondashuvni qo'llash muhim ilmiy va metodik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi – tibbiy terminologiyani ingliz tilida o'qitishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni kommunikativ yondashuv asosida bartaraf etish yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda tibbiy terminologiyani ingliz tilida o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda ularni samarali bartaraf etish yo'llarini asoslash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy lingvodidaktik, psixolingvistik va pedagogik nazariyalar asosida shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **tahliliy metod** – tibbiy terminologiya, ESP (English for Specific Purposes) va kommunikativ yondashuvga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish;
- **taqqoslash metodi** – an'anaviy (grammatika-tarjima) va kommunikativ yondashuvlarning samaradorligini solishtirish;
- **kuzatuv metodi** – nofilologik yo'nalish, xususan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonini tahlil qilish;

• **sistemali tahlil** – tibbiy terminologiyani o'qitishdagi muammolarni lingvistik, metodik va psixologik omillar kesimida o'rganish.

Tadqiqotning nazariy asosini bir nechta muhim ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Avvalo, ESP konsepsiyasi til o'qitishni o'quvchining kasbiy ehtiyojlari bilan bog'lash zarurligini asoslaydi. Hutchinson va Waters ESPni "o'quvchining maqsadlari va ehtiyojlariga yo'naltirilgan til o'qitish tizimi" sifatida ta'riflaydi [7]. Bu yondashuv tibbiyot talabalariga ingliz tilini aynan kasbiy faoliyat kontekstida o'rgatishni nazarda tutadi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) mazkur tadqiqotning asosiy metodik negizini tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til o'rganish jarayoni uning real kommunikativ vaziyatlarda qo'llanilishi orqali samarali amalga oshadi. Brownning fikricha, kommunikativ faoliyat til kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omilidir [5,78-b.].

Bundan tashqari, lingvodidaktik yondashuv asosida til va kasbiy faoliyat integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Gavranović ta'kidlaganidek, tibbiy ingliz tilini o'qitishda learner-centered (talabaga yo'naltirilgan) yondashuv ustuvor hisoblanadi [6,314-b.]. Bu esa ta'lim jarayonida talabalarining ehtiyojlari, tayyorgarlik darajasi va kasbiy maqsadlarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda, shuningdek, tibbiy terminologiyaning lingvistik xususiyatlari – uning etimologik kelib chiqishi, morfologik tuzilishi va semantik murakkabligi ham alohida e'tiborga olindi. Tibbiy terminlarning yunon, lotin va boshqa tillardan kirib kelganligi ularni o'qitishda maxsus metodik yondashuvni talab etadi.

Mazkur metodologiya asosida tibbiy terminologiyani o'qitishda yuzaga keladigan muammolar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga qaratilgan kommunikativ yondashuv asosidagi metodik yechimlar ishlab chiqildi.

NATIJARAR VA TAHLIL. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy terminologiyani ingliz tilida o'qitish jarayoni ko'p omilli va murakkab bo'lib, unda lingvistik, metodik hamda psixologik muammolar o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ushbu muammolarni tizimli tahlil qilish ularni samarali bartaraf etish imkonini beradi.

1. Lingvistik muammolar. Tibbiy terminologiyaning asosiy xususiyati uning ko'p qatlamli va murakkab lingvistik tuzilishga egaligidir. Terminlarning aksariyati yunon va lotin tillariga asoslangan bo'lib, ko'p komponentli morfemalardan tashkil topadi. Bu esa talabalar uchun ularni semantik va fonetik jihatdan o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, terminlarning ko'p ma'noliligi va qisqartmalar (abbreviations) tizimi ham qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Masalan, bir xil qisqartma turli kontekstlarda turlicha ma'noni anglatishi mumkin, bu esa kontekstual tafakkurni talab qiladi.

Abdullah G.M. ta'kidlashicha, terminlarning murakkabligi ularni eslab qolish va faol nutqda qo'llash jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi [2].

2. Metodik muammolar. Amaliyotda tibbiy terminologiyani o'qitishda an'anaviy metodlar, xususan grammatika-tarjima yondashuvi keng qo'llaniladi. Ushbu metodlar terminlarning tarjimasini o'rgatishda samarali bo'lsa-da, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirmaydi.

Lai H.K. fikricha, an'anaviy yondashuvlar talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda yetarli natija bermaydi [3]. Natijada talabalar terminologiyani nazariy jihatdan bilsalar-da, kasbiy muloqot jarayonida undan foydalanishda qiynaladilar.

3. Psixologik muammolar. Tibbiy terminlarning murakkabligi talabalar orasida psixologik to'siqlarni yuzaga keltiradi. Xususan:

- terminlarni noto'g'ri talaffuz qilishdan qo'rquv
- uzun va murakkab so'zlarni yodlashdagi qiyinchilik
- muloqot jarayonida ishonchsizlik

Bu omillar talabalar faolligini pasaytiradi va o'quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Kommunikativ yondashuv asosida yechimlar. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda kommunikativ yondashuv samarali metod sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv tilni real muloqot vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi.

Richards va Rodgers ta'kidlashicha, tilni o'rganish jarayoni uning amaliy qo'llanilishi orqali samarali amalga oshadi [4]. Shu bois, tibbiy terminologiyani o'qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- rolli o'yinlar (shifokor–bemor dialogi)
- klinik vaziyatlar (case-study)
- guruhli muhokamalar
- autentik materiallardan foydalanish

Brown fikricha, faol kommunikativ faoliyat til kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omilidir [5].

5. Natijaviylik tahlili. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim:

- terminlarni tez va samarali o'zlashtirishni ta'minlaydi
- talabalar nutq faolligini oshiradi
- kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi

Shuningdek, bu yondashuv talabalarni real tibbiy muhitga tayyorlashda muhim rol o'yna

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tibbiy terminologiyani ingliz tilida o'qitish muammolari lingvistik, metodik va psixologik omillar kesimida kompleks tarzda tizimlashtirildi;
- nofilologik yo'nalishlarda, xususan tibbiyot ta'limida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ustuvorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi;
- tibbiy terminologiyani o'qitishda ESP va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida lingvodidaktik model ishlab chiqildi;
- terminlarni o'zlashtirishni samarali tashkil etish uchun "termin → tahlil → kontekst → kommunikatsiya → amaliy qo'llash" bosqichlariga asoslangan metodik yondashuv taklif etildi;

• kommunikativ faoliyatga asoslangan metodlar (rolli o'yinlar, klinik vaziyatlar, autentik materiallar) orqali kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari aniqlashtirildi.

Mazkur ilmiy natijalar tibbiyot yo'nalishida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tibbiy terminologiyani ingliz tilida o'qitish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u lingvistik, metodik va psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Terminlarning murakkab tuzilishi, an'anaviy o'qitish metodlarining cheklanganligi hamda talabalar tomonidan terminologiyani real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashdagi qiyinchiliklar mavjud muammolar sifatida aniqlanadi. Tahlillar asosida aniqlandiki, an'anaviy grammatika-tarjima metodlari terminologiyani nazariy o'zlashtirishga xizmat qilsa-da, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda yetarli

darajada samarali emas. Shu bois, zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda kommunikativ yondashuvni keng joriy etish zarurati yuzaga keladi.

Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni:

- talabalarni faol muloqotga jalb etadi;
- terminlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi;
- mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi;
- kasbiy kommunikativ kompetensiyani kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida taklif etilgan lingvodidaktik model tibbiy terminologiyani bosqichma-bosqich va tizimli ravishda o'zlashtirish imkonini beradi hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot yo'nalishi talabalariga ingliz tilini, xususan tibbiy terminologiyani o'qitishda kommunikativ yondashuvni asosiy metod sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-1875-son qaror. – Toshkent, 2012. – 3-b.
2. Abdullah G.M.A. *Strategies and Approaches for Teaching Medical Terminology*. – 2013. – 14-b.
3. Lai H.K. *The Effectiveness of Communicative Approach in ESL Classroom*. – 2021. – 52-b.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – Cambridge, 2014. – 66-b.
5. Brown H.D. *Principles of Language Learning and Teaching*. – 2009. – 78-b.
6. Gavranović V. *Teaching English for Medical Purposes*. – 2018. – 314-b.
7. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes*. – Cambridge, 1987.
8. Dudley-Evans T., St John M. *Developments in ESP*. – Cambridge, 1998.
9. Celce-Murcia M. *Teaching English as a Second Language*. – 2001.
10. Halliday M.A.K. *Language as Social Semiotic*. – London, 1978.
11. Bojovic M. *Teaching Foreign Languages for Specific Purposes*. – 2006.
12. Serjeantson M.S. *A History of Foreign Words in English*. – London, 1935.
13. Methold K., Methold C. *Practice in Medical English*. – London, 1975.
14. Parkinson J. *A Manual of English for the Overseas Doctor*. – 1976.
15. Harmer J. *The Practice of English Language Teaching*. – 2001. – 371-b.
16. Pavel E. *Teaching English for Medical Purposes*. – 2014.